XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 14 - yanvar VI-33-6-4-57-K/22 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tumanidagi “Ayridevol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizom, Dehqonobod tuman hokimi va Dehqonobod tumanidagi “Ayridevol” mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dehqonobod tumanidagi “Ayridevol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risidagi Dehqonobod tuman hokimi hamda “Ayridevol” mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan berilgan takliflar ma’qullansin.

2. Dehqonobod tumanidagi “Ayridevol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla ro‘yxati hamda uning nomi 1-ilovaga, yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini chegarasi va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Dehqonobod tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari soni 49 ta deb yuritilsin.

4. Dehqonobod tuman hokimi o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Ismoilov), tuman hokimligi:

- yangi tashkil etilayotgan mahallaning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin;

- hududiga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Dehqonobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Usmonov), Dehqonobod tuman moliya bo‘limi mudiri v.v.b (F.Nurmatov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

6. “Dehqonobod ovozi” gazetasi tahririyati (E.Maxsumov), Dehqonobod tuman hokimligining axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi (O.Qo‘ldoshov) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining “Ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari” bo‘yicha doimiy komissiya raisi N.Bozorov va Dehqonobod tuman hokimi o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i N.Ismoilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Aliqulov.Z.X**

Халқ депутатлари Деҳқонобод
туман Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-33-6-4-57-K/22-сон қарорига
1-илова

Dehqonobod tumanidagi Ayridevol mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati va uning nomi

T/r	**Bo‘linadigan mahallaning nomi**	**Bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilgan mahallalar nomi**	**Izoh**
1.	Ayridevol	Ayridevol	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi
		Qo‘ng‘irot	

Халқ депутатлари Деҳқонобод
туман Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-33-6-4-57-K/22-сон қарорига
2-илова

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Qo‘ng‘irot mahallasi

Markazi: Shakarbuloq qishlog‘i

Aholi: 2150 ta

Oila: 422 ta

Chegarasi: Shakarbuloq qishlog‘i, Qorabotir qishlog‘i, Dovkamar qishlog‘i, Yangiqishloq qishlog‘i, Abdolbuloq qishlog‘i, Chilgaz qishlog‘i.